



## OG‘IR BETONLARNING MUSTAHKAMILIGINI TADQIQ QILISH

Tadqiqotchi, Botirov Bektosh Farhod o‘g‘li,

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

[korreys95@gmail.com](mailto:korreys95@gmail.com)

t.f.n., dotsent, Berdiyev Obloql Boboqulovich,

Jizzax politexnika instituti [jizpimalaka@mail.ru](mailto:jizpimalaka@mail.ru)

**Annotatsiya:** Maqolada mualliflarning bino va inshootlarning konstruksiyalari mustahkamlash va rekonstruktsiya qilishda O‘zbekistonda ishlab chiqariladigan kimyoviy qo‘srimchalarni qo‘llash asosida olinadigan B30 sinfidagi betonning tavsiflari bilan solishtirish maqsadida etalon sifatida qabul qilinadigan beton mustahkamligi bo‘yicha natijalari taxlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** beton, chaqiqtosh, bog‘lovchi, to‘ldiruvchi, portlandsement, qolip.

**Аннотация:** В статье проанализированы результаты авторов по прочности бетона, принимаемого в качестве эталона, в целях сравнения с характеристиками бетонов класса В30, получаемых на основе применения химических добавок, производимых в Узбекистане, при укреплении и реконструкции конструкций зданий и сооружений.

**Ключевые слова:** бетон, щебень, вяжущее, наполнитель, портландцемент, форма.

**Abstract:** In the article, the results of the authors on the strength of concrete, which is considered as a standard, are analyzed in order to compare with the characteristics of B30 class concrete, which is obtained based on the use of chemical additives produced in Uzbekistan in the construction of buildings and structures.

**Key words:** concrete, crushed stone, binder, filler, Portland cement, form.

Mamlakatimizda kapital qurilish sohasiga katta e’tibor berilmoqda, qurilishni rivojlantirish uchun katta mablag‘ va investitsiyalar ajratilmoqda. Fuqaro, sanoat binolari, kommunikatsiya inshootlari qurilmasiga bo‘lgan talabni qaytadan ko‘rib chiqish, mahalliy xom ashyolardan yangi zamonaviy qurilish uchun zarur bo‘lgan kimyoviy qo‘srimchalarni ishlab chiqarish va ular asosida yangi avlod betonlarini yaratish, ishlab chiqarishga doir muammolarni hal etish hozirgi zamon arxitektura qurilish sohasining dolzarb muammolaridan biri bo‘lib kelmoqda.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti davrida qurilish materiallari, buyumlariga bo‘lgan ehtiyoj ortib borishi bilan birgalikda, ularni sifati va ekspluatatsion ko‘rsatkichlariga yuqori talablar qo‘yilmoqda. Texnologik taraqqiyot muammolariga javob beradigan



zamonaviy yuqori mustahkam va yuqori sifatli betonlar material sarfini sezilarli darajada kamaytirishi va qurilish samaradorligini oshirishi mumkin, shu bilan birga, bugungi kunda yangi avlod betonlariga talablarning yangi darajasi taqdim etilmoqda. Bu ularning nafaqat oddiy, balki o‘ta og‘ir sharoitlarda, yangi me’moriy shakllar inshootlarida, yo‘l yuzalarida, aerodromlarda, himoya elementlarida va yorilish qarshiligi talab qilinadigan joylarida, yuqori zarb kuchi va qarshiliklarga bardosh berilishi kerak bo‘lgan joylarda qo‘llaniladi.

Yuqori sifatli betonlar ko‘p komponentli materiallar bo‘lib, ularda kompozit biriktiruvchilar, tuzilish, xususiyatlar va texnologiyaning kimyoviy modifikatorlari, faol mineral komponentlar va kengaytiruvchi qo‘srimchalar qo‘llaniladi va betonning ko‘p komponentli xususiyati texnologiyaning barcha bosqichlarida strukturaning shakllanishini nazorat qilish imkonini beradi.

Kompleks qo‘srimchalar asosida olingan og‘ir betonlarning fizik-mexanik xossalariiga va uzoqqa chidamliligi hamda sementli kompozitsiyalarning strukturasi va xossalariiga ta’sirini aniqlash maqsadida dastlabki hozirgi kunda kimyoviy qo‘srimchalarsiz qo‘llaniladigan yuqori markali betonlar mustahkamligi bo‘yicha eksperimental tadqiqotlar olib borildi.

Eksperimental tadqiqot ishlarida beton tayyorlash uchun “JIZZAKH CEMENT PLANT” MCHJning ЦЕМ II/A-I 42,5 N(ГОСТ 31108-2020) markali, “QIZILQUMSEMENT” AJning ЦЕМ I 42,5 N va “BEKOBODSEMENT” AJning ЦЕМ I 42,5 H portlandsement turlaridan foydalanildi.

Portlandsementlarning kimyoviy tarkibi 1.1-jadvalda keltirilgan.

1.1-jadval

### Portlandsementlarning kimyoviy tarkibi

№	Sement turi	Nomlanishi	Kimyoviy tarkibi, %						
			SO <sub>3</sub>	Erimaydigan qoldiq	Ohaktosh qo‘srimchasi	MgO	Cl ioni	PPP	
1	“JIZZAKH CEMENT PLANT” MCHJ	ЦЕМ II/A-I 42,5 Н	2,73	1,07	9,65	1,60	0,018	-	
2	“QIZILQUMSEMENT” AJ	ЦЕМ I 42,5 Н	2,57	1,78	-	1,92	0,027	2,67	
3	“BEKOBODSEMENT” AJ	ЦЕМ I 42,5 Н	2,57	1,62	-	1,94	0,025	2,61	



Keltirilgan portlandsementlarning solishtirma yuzalari  $3000\text{-}3500 \text{ sm}^2/\text{g}$  oraliqda joylashgan. Ko'rsatilgan portlandsementlarning 31108-2020 "Цементы общестроительные" va GOST 310.4-81 "Цементы. Методы определения предела прочности при изгибе и сжатии" ga muvofiq aniqlangan fizik-mekanik xossalari 1.2-jadvalda keltirilgan.



1-rasm. "Bekobodsement" AJ portlandsementning 28 kunlikdagи mustahkamlik natijalari.

GOST 31108-2020 "Цементы общестроительные" ga muvofiq tajribalarni davom ettirish uchun "BEKOBODSEMENT" AJ ЦЕМ I- 42,5 Н markali portlandsementi tanlab olindi.

Tadqiqot ishlarini bajarishda yirik to'ldiruvchi sifatida Jizzax viloyatida joylashgan "SAYXAN DROBILKA" MCHJ tomonidan ishlab chiqariladigan chaqiq toshi qo'llanildi va uning granulometrik tarkibi GOST 8269.0-97 "Щебень и гравий из плотных горных пород и отходов промышленного производства для строительных работ" talablariga muvofiq sinovdan o'tkazildi.

Sement-qum qorishmalari uchun mayda to'ldiruvchi sifatida yuqoridagi MCHJ chaqiq toshining maydalangan qumidan foydalanildi, haqiqiy zichligi  $2,6 \text{ g/sm}^3$  va to'kilgan holatdagi zichligi  $1,653 \text{ kg/sm}^3$  bo'lgan bu qum ГОСТ 8735-88 "Песок для



строительных работ. Методы испытаний” ва ГОСТ 8736-93 “Песок для строительных работ. Технические условия” talablarini qoniqtiradi.

1.2-jadval

### Sementning fizik-mexanik xossalari

Nomlanishi	Sitatagi qoldiq 0,045 mm %	Sitatagi qoldiq 0,08 mm %	Bleyn g/sm <sup>2</sup>	Qotish boshlanish vaqtı, min	Qotish tugash vaqtı, min	Sementning normal qattiqligi, %	Solishtirma og‘irligi, g/dm <sup>3</sup>	Mustahkamli k		
								2 sutka	7 sutka	28 sutka
ЦЕМ II/A-I 42,5 Н	11,4	1,9	4320	196	300	31,0	1083	20,5	32,8	39,3
ЦЕМ I 42,5 Н	4,4	0,3	3469	190	290	31,2	1050	22,5	29,3	38,9
ЦЕМ I 42,5 Н	6,2	0,5	3315	180	305	32,0	1047	22,4	33,4	40,5



2-rasm. Portlandsementning MIG-1000 rusumli hidravlik pressda mustahkamligini sinash jarayonlari.

Betonning dastlabki tarkibini aniqlash beton mustahkamligining sement faolligiga, suv-sement nisbatiga, ishlataladigan materiallarning sifatiga, beton qorishmasi harakatchanligiga, suv sarfi va boshqa omillarga bog‘liqligi asosida amalga oshirildi.

Beton xossalari va beton qorishmasini uning tarkibiga qay darajada bog‘liq ekanligini aniq belgilash uchun, dastlabki sinov ishlari o‘tkazildi, tajribani rejalashtirish va uning natijalarini o‘rganishning analitik usulidan foydalanildi.



Ma'lumki tarkibidagi sement miqdori yetarli bo'lgandagina beton qorishmasining joylanishi oson bo'ladi, sement miqdorining belgilangan darajadan kam bo'lishi beton qorishmasining qatlamlarga ajralishi, unda mikro bo'shliqlar paydo bo'lishi va xizmat qilish muddatining kamayishi xavfini oshiradi.

Tekshirilgan natijalar bo'yicha har bir beton sinflari (B30, B40) ning eng eng yuqori qiymatga erishilgan ishchi tarkiblari 6-rasmida keltirildi.

1.3-jadval

№	Harakatla-nuvchanlik	Beton sinfi (mustahkamligi)	1 m <sup>3</sup> beton qorishmasining ishchi tarkibi			
			ЦЕМ I 42,5 Н	Чақиқ тoshining maydalangan qumi	Чақиқ tosh (10-20 mm)	Suv
			kg	kg	kg	1
1		B30 (M400)	430	1054	722	210
2		B30 (M400)	391	823	1006	180
3		B30 (M400)	450	743	970	212



3-rasm. B30(M400) sinfli betonning 10x10x10 namunalari




Tahlil natijalari asosida beton qorishmasining 3 xil tarkibi tanlab olinib (1.3-jadval), shu tarkib asosida namunalar tayyorlandi. Laboratoriya tahlillari natijasida 3, 7 va 28 kunlik siqilishga mustahkamlik chegaralari tekshirildi.

Tayyorlangan B40(M500) sinfli betonning 10x10x10 namunalari 3-rasmida, B30(M400) sinfli betonning 10x10x10 namunalari 4-rasmida, B30 (M400) sinfli betonning gidravlik pressda siqilishga bo‘lgan mustahkamligini sinash ishlari 4-rasmida keltirilgan.



4-rasm. B30 (M400) sinfli betonning gidravlik pressda siqilishga bo‘lgan mustahkamligini sinash



5-rasm. Kimyoviy qo‘sishmasiz betonlarning siqilishga bo‘lgan mustahkamligi

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatadiki 3, 7 va 28 kunlik sinov natijalariga muvofiq: B30(M400) sinfli betonning 3-namunada yani, ( $S=450$  kg, chaqiqtosh 743 kg, qum=970 kg, suv=212 l) 28 kunlikda eng yuqori mustahkamlikka(43,1 MPA) erishganligi kuzatildi.

**Adabiyotlar.**

1. Абдуллаев, К.У. Исследование трещиностойкости, несущей способности и деформативности изгибаемых сборно-монолитных железобетонных элементов : диссертация кандидата технических наук: 05.23.01. - Москва, 1997. - 162 с.: ил.
2. Shodmanov A.YU. Parsaeva N.J. "Beton va temirbeton texnologiyasi" O'quv qullanma. Toshkent. "FAN ZIYOSI" nashriyoti. 2021y.
3. ГОСТ 31108-2020 «Цементы общестроительные»
4. ГОСТ 310.4-81 «Цементы. Методы определения предела прочности при изгибе и сжатии»
5. ГОСТ 8269.0-97 “Щебень и гравий из плотных горных пород и отходов промышленного производства для строительных работ”
6. ГОСТ 8735-88 “Песок для строительных работ. Методы испытаний”
7. ГОСТ 8736-93 “Песок для строительных работ. Технические условия”
8. Botirova, N., Abdikomilova, M., Botirov, B., & Abdullayev, M. (2022). DEVELOPMENT OF CONCRETE COMPOSITION WITH THE HELP OF CHEMICAL ADDITIVES OF HIGH STRENGTH HEAVY CONCRETE. *Академические исследования в современной науке*, 1(17), 99-106.
9. Farhod o'g'li, B. B. (2022, September). YUQORI MUSTAHKAMLIKKA EGA BO 'LGAN OG 'IR BETON UCHUN SEMENT VA TO 'LDIRUVCHINING TAVSIFI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE " INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION"* (Vol. 1, No. 1, pp. 11-117).
10. Farhod o'g'li, B. B., & Berdiyev, O. B. Optimal Composition and Study of The Physical and Mechanical Properties of High-Strength Heavy Concrete.